

2024-yil Chirchiq davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasida uchun unutilmas yutuqlar va ijodiy yangiliklarga boy bo'ldi. Ta'lim jarayonida yangicha yondashuvlar, innovatsion loyihalar va ilmiy izlanishlar psixologiya yo'nalishidagi talabalarning faolligini sezilarli darajada oshirdi. Quyida o'tgan yilning eng diqqatga sazovor yutuqlari haqida so'z yuritiladi.

Psixologiya kafedrasida talabalarning intellektual salohiyatini oshirish uchun 6 ta o'ziga xos loyiha ishlab chiqildi. Mazkur loyihalar orqali 83 foiz talabalar jalb qilinib, ular zamonaviy metodikalar va yangi tadqiqot usullari bilan tanishishdi.

Qiziqarli tomoni shundaki, ushbu loyihalar o'z natijadorligini ko'rsatib, hatto yangi o'quv yilida birinchi bosqich talabalari orasida ham ijobiy ta'sirga ega bo'ldi.

2025-2026 o'quv yilida yangi yo'nalishlar yo'lga qo'yildi!

Psixologiya kafedrasida mudiri Nortoqi Eshnayeov tashabbusi bilan kafedrada ikki yangi yo'nalish ochildi:

- Neyrografika – ijod va ong o'rnatidagi bog'liqlikni o'rganish;
- HR menejer – inson resurslari boshqaruvi bo'yicha zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Bu yo'nalishlar bo'lajak psixologlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Psixologiya yo'nalishi talabalari yil davomida amalga oshirgan ijodiy va amaliy ishlar uchun universitet rahbariyati tomonidan e'tirof etildi. Talabalar bir martalik 1 million so'm pul mukofoti bilan taqdirlandilar.

Jahongirmirzo ABDURASULOV



IQTIDOR POYDEVORI

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularning natijalari har bir sohada o'z aksini topmoqda. Xususan, ta'lim tizimida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning iste'dod va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish ustuvor maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Bu borada Chirchiq davlat pedagogika universitetida amalga oshirilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq.

Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham samarali natijalar bermoqda. Ayniqsa, Psixologiya kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan ustoz-shogird an'analariga asoslangan holda iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash, ularga ilmiy yo'nalishda ko'mak berish ishlari izchil davom ettirilmoqda. Natijada, Psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiyalarda 70 dan ortiq ilmiy maqolalari chop etildi. Bu esa yosh olimlarimizning intellektual rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Shuningdek, universitet talabalari tomonidan individual ta'lim muhitini shakllantirish maqsadida Chirchiq shahridagi 29-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan hamkorlikda qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Husanova Nigina Baxtiyorovnaning ilmiy izlanishlari asosida bolalar bilan ishlash jarayonida "Ertak terapiyasi" dasturini qo'llash tajribasi sinovdan o'tkazildi. Ushbu metod bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, tasavvurini boyitish, shuningdek, ta'lim muhitiga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Ota-onalar esa farzandlaridagi ijobiy o'zgarishlarni alohida qayd etib, mazkur metodikaning samaradorligini e'tirof etishmoqda.

Chirchiq davlat pedagogika universitetida ta'lim sifatini va ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarda eng asosiy vazifa – yosh iqtidorlarni kashf etish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat. Shubhasiz, ilmiy salohiyat yuksalgani sayin, yurtimiz taraqqiyoti ham yanada jadal sur'atlar bilan rivojlanadi.

BARCHASI SHU YERDAN VA SHU ONDAN BOSHLANADI

TA'LIM ZIYOSI

Ushbu sahifa 22-noyabr – Xalqaro Psixologlar kuniga bag'ishlanadi



"TEZKOR DIAGNOSTIKA" – YANGI NAZAR

Xalqimizda: "Vaqt – oltindan qimmat", degan naql bor. Darhaqiqat, hozirda har bir sohada tezkor va samarali yechimlar izlanmoqda, shu jumladan, psixologiya sohasida ham. Chirchiq davlat pedagogika universitetining Psixologiya kafedrasida esa bu yo'nalishda ulkan qadam tashladi. "Tezkor diagnostika" loyihasi orqali nafaqat inson temperamentini tezkor aniqlash, balki psixologik tahlil jarayonini butunlay yangi bosqichga olib chiqishga muvaffaq bo'lishdi!

Loyihaning bosh muhandisi – Zilola Dilmurodova boshchiligidagi "QD Psixolog" guruhi ajoyib yangilikni yaratdi: "Qo'l orqali temperamentni aniqlash" metodikasi. Oddiy, tezkor va samarali bo'lgan bu usul XXI asr psixologiyasiga yangi nafas bag'ishlaydi.

Bilamizki, temperament insonning butun hayoti davomida uni kuzatib boruvchi xulq-atvor dinamikasi va emotsionallikni belgilovchi asosiy xususiyatdir. Gipokrat davridan beri temperament to'rt xilga – xolerik, sangvinik, melanxolik va flegmatik tiplarga ajratib o'rganilgan. Lekin avvallari temperamentni aniqlash uzoq savol-javoblar talab qilgan bo'lsa, endi buni birgina qo'l orqali bilish mumkin!

"Qo'l orqali temperamentni aniqlash" metodikasi shunchalik oddiyki, uni o'zlashtirish uchun maxsus laboratoriya yoki qimmat asbob-uskunalar kerak emas. Barcha jarayon bir necha daqiqa ichida amalga oshiriladi. Sinovlar davomida bu usulning an'anaviy Belov va Ayzenk metodikalaridan kam emasligi, hatto ayrim hollarda samaraliroq ekanligi isbotlandi.


Bugungi kun psixologiyasi faqat nazariy

bilimlar emas, ulkan amaliy tajribalar orqali yuksalmoqda. Chirchiq davlat pedagogika universitetining Psixologiya kafedrasida tomonidan amalga oshirilgan "Tezkor diagnostika" loyihasi ushbu jarayonda o'ziga xos inqilobiy o'rin egalladi. Temperamentni tezkor aniqlashda innovatsion yondashuv sifatida "Qo'l orqali temperamentni aniqlash" metodikasi nafaqat universitet talabalarida, balki ilmiy-tadqiqot doirasida ham katta muvaffaqiyat qozondi.

Loyiha doirasida universitetning Boshlang'ich ta'lim, Pedagogika, Matematika va informatika, Tabiiy fanlar hamda San'atshunoslik fakultetlaridan 500 nafar talaba qamrab olindi. Umumiy hisobda loyiha 91,2% muvaffaqiyat ko'rsatkichi bilan ilmiy samaradorligini isbotladi.

"Tezkor diagnostika" loyihasi nafaqat universitet darajasida, balki respublika bo'ylab katta qiziqish uyg'otmoqda. Ushbu metodika talabalarga qanday yutuqlarni taqdim etmoqda?

- Vaqtni tejash: Bir necha soatlik an'anaviy metodikalar o'rniga tezkor natijalar.



- Atrof-muhitga mehr: Qog'ozdan minimal foydalanish orqali ekologik yondashuv.

- Mijoz bilan muloqotni soddalashtirish: Diagnostika jarayoni ishonchli va samarali amalga oshiriladi.

- Kasbiy ko'nikmalar: Har bir talaba amaliy psixolog sifatida shakllanmoqda.

Endilikda "Qo'l orqali temperamentni aniqlash" metodikasi bo'yicha patent olish jarayoni boshlandi. Bu nafaqat universitet, balki butun respublika uchun psixologiyada ulkan yutuq bo'ladi. Loyiha mualliflari ushbu metodikani kelgusida kengroq joriy etishni rejalashtirishmoqda. Psixologiya sohasida inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirishni maqsad qilgan Chirchiq davlat pedagogika universiteti, shubhasiz, bu yo'lda birinchi qadamni tashladi.

Tezkor diagnostika bilan kelajak sari birgalikda qadam tashlaylik!

"PSIXOLOG AI"

Zamonaviy psixologiya sohasida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim va amaliy psixologik xizmatlarni samarali rivojlantirish uchun muhimdir.

Inson omilining psixologik xizmatlarda roli muhim bo'lib, har bir tavsiya yoki diagnostika natijasi shaxsiy tajriba, bilim va hissiyotlar bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqishda inson omilini hisobga olish, AI tavsiyalari va natijalarining samaradorligini oshiradi.

Inson omili psixologik jarayonlarning samaradorligini belgilovchi asosiy komponentlardan biridir. Shaxsning xulq-atvori, qaror qabul qilish qobiliyati, stress va motivatsion holatlari psixologik xizmat sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, "Psixolog AI" loyihasida inson omili quyidagi jihatlar orqali hisobga olinadi:

Emotsional holat: stress, tashvish va motivatsiya darajasini aniqlash va tavsiyalarni shunga moslashtirish.

Shu bilan bir qatorda, "Psixolog AI" tizimi psixodiagnostika jarayonini avtomatlashtirish orqali quyidagi bir qator afzalliklarni yaratib berishi ko'zda tutilmoqda:

- Aniqlik va tezlik jihatidan yuqori natijalar;

- Turli psixologik testlar va so'rovlarni bitta platformada integratsiyalash;

- Shaxsiy xususiyatlarni aniqlash va tavsiyalarni avtomatik shakllantirish;

- Maktab va oliygohlarda psixologik xizmat sifatini oshirish.

"Psixolog AI" loyihasi ilmiy yondashuvlarga asoslangan bo'lib, bularga: psixologik testlarni raqamli formatga o'tkazish va natijalarni avtomatik tahlil qilish, shaxs xususiyatlarini, stress va motivatsiyani AI orqali aniqlash, talabalar uchun AI asosida psixologik simulyatorlar

yaratish. psixokorreksiya va psixoterapevtik tavsiyalarni avtomatik shakllantirish. Ta'lim jarayonida inson omilini hisobga olgan holda tavsiyalar berish. onlayn psixologik yordam tizimini yaratish kabilar kiradi.

"Psixolog AI" loyihasi psixologiya ta'limi va amaliyotini yangi bosqichga olib chiqadigan innovatsion platforma hisoblanadi. Sun'iy intellektning psixologik jarayonlarga tatbiq etilishi, inson omilini hisobga olgan holda, diagnostika va konsultatsiya sifatini oshiradi, talabalarga zamonaviy raqamli laboratoriya yaratadi va ularning kompetensiyasini xalqaro standartlarga moslashtiradi. Loyihaning amaliy natijalari ta'lim va psixologik xizmatlarda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Olimjon OZODQULOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi



MUSIQA TERAPIYASI: RUHGA DARMON, ONGGA TIHOM



Hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridan biri – ruhiy salomatlik. Jamiyatda yuzaga kelayotgan stress, xavotir va emotsional tanglik insonlar hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu sharoitda psixologlar jamiyatning ruhiy barqarorligini tiklashda muhim rol o'ynaydi.

Buyuk mutafakkir Farobiy musiqaning inson qalbiga kuchli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan edi. Uning aytishicha, musiqaning kuchi shunchalar ta'sirchan

ekanki, u insonni ongsizlik holatiga tushirishi yoki aksincha, uni ruhiy yuksalishga chorlashi mumkin. Ushbu qudratni anglagan holda, loyihamiz musiqaning mazkur

ikki qirrasini tadqiq qilishni va musiqani ijobiy energiya manbaiga aylantirishni maqsad qilgan.

Musika terapiyasi – bu musiqaning ruhiy va jismoniy salomatlikka foydali ta'sirini o'rganadigan ilmiy-uslubiy yo'nalish. Stressni kamaytirish, diqqat va xotirani yaxshilash, xavotir va depressiyani kamaytirish – bu usulning faqat boshlang'ich samaralari, xolos.

Loyiha doirasida nafaqat musiqaning ta'siri o'rganiladi, balki bu yo'nalishda yangi mutaxassis – musika terapevtlari tayyorlanadi. Mazkur loyiha mutaxassislarni ruhiy salomatlik sohasida yangi yondashuvlar bilan qurollantirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat talabalarning ruhiy holatini yaxshilash, balki jamiyatda salbiy his-tuyg'ularni kamaytirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarning poydevorini yaratadi.


Musika terapiyasi inson qalbini

davolashda kuchli vosita bo'lib, uni tinchlantiradi, ilhomlantiradi va yangi marralarni zabt etishga chorlaydi. Shu ma'noda, musika faqat san'at emas, balki ruhiy davolanishning universal tili hamdir.

“Musika terapiyasi” loyihasi O'zbekiston ta'lim va psixologiya tizimida mutlaqo yangi yo'nalish bo'lib, inson ruhiyatini musiqaning davolovchi qudrati bilan yaxshilashga xizmat qiladi. Musika faqat quloq emas, qalb va ongning ham ozuqasi ekanini anglash, uni ongli ravishda qabul qilishga o'rgatish bugungi kunning dolzarb ehtiyojlaridan biridir.

Qo'lingizni yuragingizga qo'yib, sevimli musiqangizni tinglang. His qilyapsizmi? Bu musiqaning qalbingiz bilan uyg'unlashayotgan qudratidir. Shu bois, keling, musiqani faqat tinglamaylik – unda yashaylik, his qilaylik va undan davo topaylik!

Luiza KARATAYEVA



ZAMONAVIY OILA

Harbiroilaning qalbi – u yerda shakllanadigan qadriyatlar, an'analar va mehrdir. Bugungi zamonaviy oilada, globallashuv va texnologiyalar davrida, milliy qadriyatlarni saqlash nafaqat muhim, balki farzandning ruhiy va psixologik rivojlanishi uchun zarurdir.

Farzand tarbiyasida milliy qadriyatlar – bu nafaqat milliy urf-odatlar, madaniy marosimlar yoki milliy tilni bilish emas. Bu – bolaga axloq, hurmat, mehr-muhabbat va mas'uliyat kabi qadriyatlarni singdirishdir. Masalan, ovqat tayyorlash, oila a'zolariga hurmat ko'rsatish, ulug'larni qadrlash – bular har kuni kuzatib, o'zlashtiriladigan kichik, lekin juda muhim psixologiyaviy signallardir.

Zamonaviy oilada esa, bolalar ko'proq ekran orqali ma'lumot oladi, internet va global madaniyat ta'sirida o'sayotgani uchun, milliy qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik jihatdan, bolaga milliy urf-odatlar asosida tarbiya berish uning identifikatsiyasini mustahkamlaydi, o'zligini anglash va jamiyatdagi o'rini topishga yordam beradi.

Shuningdek, zamonaviy ota-onaning roli – milliy qadriyatlarni faqat o'rgatish emas, balki o'z hayotida namuna ko'rsatishdir. Bolalar ko'pincha so'zdan ko'ra, amaldagi xulq va muomalaga e'tibor beradi. Agar ota-ona milliy urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lsa, mehr va salohiyatni qadrlasa, bu qadriyatlar farzandning ruhiy dunyosiga chuqur singadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy oilada milliy qadriyatlar – bu farzand uchun nafaqat madaniy boylik, balki psixologik barqarorlik va ijtimoiy identifikatsiyaning asosidir. Ota-onaning me'yori, hurmati va mehri bilan uyda har bir kun, bola uchun nafaqat tarbiya, balki hayotning asosiy darslariga aylanadi. Milliy qadriyatlar bilan bog'liq tarbiya – bu bolaning qalbi va ruhini boyituvchi eng samarali va doimiy vositadir.

Mavjuda BURXANOVA

VIRTUAL DUNYO VA REAL HAYOT

Alfa avlodi – bugungi zamonaviy yoshlar bo'lib, ular texnologiya bilan uyg'un yashaydi.

Ular uchun virtual dunyo faqat o'yin yoki ko'ngilochar maydon emas, bu – o'rganish, tajriba o'tkazish, ijodiy g'oyalarni sinash maydoni va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

“Tik tok”, “You Tube”, “Instagram” kabi qo'shtirnoq ichidagi platformalar ularning ijodiy laboratoriyasiga aylanadi. Shuningdek, Alfa avlodi real hayot bilan virtual dunyo o'rtasida uyg'unlikni yaratadi.

Onlayn kurslar orqali yangi bilimlarni egallaydi, shu bilan bir qatorda, real hayotdagi startaplar yoki ilmiy tadqiqotlarda qatnashish ularning kundalik hayotining bir qismiga aylanib qoldi, deb ayta olamiz.

Tanganing ikkinchi tomonini ko'radigan bo'lsak, ijtimoiy tarmoqlar yosh kelajak avlod virtual olamga haddan tashqari sho'ng'ib, real hayotdagi maqsadlar va mas'uliyatni ortga surib qo'yimoqda. Doimiy ravishda ota-

onalariga bo'lgan hurmatsizlik, ruhiy bosim, stress va o'z-o'zini past baholash hissini kuchaytiradi. Bugun virtual dunyo bizning hayotimiz yonida emas, balki uning ichida yashayapti. Raqamli makon endi biz yaratgan vosita emas, balki bizni ham

qayta shakllantirayotgan kuchga aylanadi. Texnologiyani egallab olish emas, u bilan insonlar o'zini yo'qotib qo'ymasdan yashashni o'rganishdir. Bizga berilgan bu imkoniyatlardan oqilona va samarali ishlarda foydalana olsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, shuni



aytish mumkinki, insoniyatning eng katta sinovi endi algoritmlardan tezroq fikrlash emas, balki o'z qalbini yo'qotmasdan raqamli cheksizlikda o'zligini topa olishdir.

Laziza JALILOVA,
Pedagogika fakulteti Psixologiya
yo'nalishi 24-2-guruh talabasi

KO'RINMAS ZANJIR

Bugungi kunning eng xavfli odatlaridan biri - tamaki ham, spirtli ichimlik ham emas. Hozirgi zamonning eng sokin, eng beozor ko'ringan, ammo eng ko'p jonga tegayotgan odati – qo'ldan tushmaydigan telefon, quloqdan olinmaydigan quloqchin, uyqudan oldin ko'zdan uzilmaydigan ekran.

Biz buni “texnologiyalar asri” deymiz, ammo aslida bu – virtual qaramlik asridir. Qaramlik esa hech qachon bir kunda kelmaydi. U sekin kiradi, sekin ildiz otadi, sekin odamni o'rab oladi.

Avvaliga shunchaki telefonni tekshiramiz.

Keyin yangiliklarni, keyin kimdir qo'ygan “story”ni, keyin o'yin, keyin scroll... scroll... yana scroll...

Va shunda inson sezmaydi: uning hayoti endi qo'ldagi temir qurilma ritmida kechmoqda.

Bir vaqtlar odamlar osmonni kuzatib edi... bugun esa ekran yorqinroq ko'rinyapti

Virtual olamning jozibasini bor: u shovqin qilmaydi, sizni tanqid qilmaydi, kutadi, javob qaytaradi, sizni o'zingizga

“muhim odam”dek his qildirdi. Ammo ayni shu joziba odamni o'ziga tortadi.

Bir qarab qo'yaman degan odam uch soat o'tirib qoladi. Bir o'yin o'ynayman degani tun yarmiga kirib ketadi. Bir-ikki video ko'raman degan bola butun darsni o'tkazib yuboradi.

Virtual qaramlik – bu inson ongining ichiga sekin kirib boradigan, ko'rinmaydigan virusdir. Bu virus vaqtini, diqqatini, uyquni va eng achinarlisi, hayot mazmunini yutadi.

Qaramlikning eng og'riqli belgisi – inson o'zini yo'qotadi

Eng achinarli holat – inson o'zini qanchalik bog'langanini bilmaydi. Chunki virtual qaramlikda odam o'zini erkin his qiladi... lekin aslida u eng katta qafas ichidadir. Bu qafasning panjaralari ko'rinmaydi, lekin cheklovi

juda seziladi.

Ammo hech kim telefonning o'zi nima deyaётganini eshitmaydi...

Telefon jim turmaydi. Har lahzada “signallar” yuboradi:

“Kimdir post qo'ydi”, “Kimdir sen haqida yozdi”, “Yangi o'yin yangilandi”, “Buni ko'rmasang, nimadandir ortda qolasan”.

Mana shu signallar orqali telefon odamni asta-sekin o'ziga qaram qiladi. Bu shunchaki qurilma emas – bu algoritmlar, bu psixologiya, bu marketing, bu inson ongiga ta'sir texnologiyasi.

Virtual olam – yaxshi qurol, lekin yomon xo'jayin

Virtual dunyo yomon emas. U yordam beradi, o'rgatadi, imkoniyat yaratadi. Muammo – inson uni boshqara olmay qolganda boshlanadi.

Chiqish yo'li bormi? Albatta, bor. Yechimning birinchi qadamini esa hech qaysi telefon taklif qilmaydi: uni insonning o'zi tashlashi kerak.

Qaramlikdan qutulish uchun: • vaqtini belgilash,

• real suhbatlarga ko'proq vaqt ajratish, • ertalabki soatni telefonsiz boshlash, • dam olish uchun tabiatga chiqish kabi oddiy odatlar juda katta o'zgarish qiladi.

Telefonni o'chirib qo'yish – bu olamdan uzilish emas. Bu o'zimizga qaytishdir.

Xulosa o'rinda: yonimizda ko'rinmas zanjir bor. Uni quldan chiqarish faqat bizning qo'limizda.

Bugun virtual olam odamni o'ziga tortmoqda. Ammo esingizda bo'lsin: hayot ekrandan iborat emas.

Hayot – bu quchoqlash, kulish, suhbat, taassurot, quvonch, maqsad, yaratish va yashashdir.

Telefon bizga doim kerak bo'ladi. Ammo u bizga ega bo'lib olmasligi kerak.

Shunday ekan, bir kuni o'zingizga shunchaki shunday deb ko'ring:

“Bugun men ekran emas, hayotni tanlayman.”

Nortozi ESHNAYEV

QIZIQISHMI YOKI MAJBURIYAT?

Jamiyatda kasblarning qadrlanish darajasi tarixan shakllangan bo'lib, ayrim sohalar har doim yuqori maqomli, hurmatga loyiq deb hisoblangan. Masalan, shifokorlik,

huquqshunoslik, diplomatik xizmat kabi kasblar ko'pincha “intelektual mehnat”, “mas'uliyatli faoliyat” sifatida baholanadi. Bu kasblar egalariga jamiyatda yuqori obro', barqaror daromad va ijtimoiy kafolatlar beriladi. Shu sababli, bunday sohalar ko'pincha “muvaffaqiyat belgisi” sifatida ko'riladi.

Boshqa tomondan, agronom, tikuvchi, ustachilik, san'at sohalari, hatto tarbiyachi yoki kutubxonachi kabi kasblar esa ko'pincha jamiyatda ikkinchi darajali sifatida

ko'riladi. Bu kasblar haqida “Qiyinchiligi ko'p, daromadi kam”, “Bu ish bilan uzoqqa bormaysan” degan fikrlar keng tarqalgan.

Bu stereotiplar qayerdan keladi?

Sanoatlashuv davridan boshlab, jamiyatda oq yoqali (ofis, boshqaruv) ishlar jismoniy mehnatdan ustun qo'yila boshlandi. Aqliy mehnat jamiyatda intellekt va nufuz belgisi sifatida shakllandi.

Ko'p hollarda ota-onalar farzandining hayoti o'zlariniki kabi mashaqqatli bo'lmasligini istaydi. Ular “ishonchli”, “barqaror” deb hisoblangan kasblarni tavsiya qiladi – bu esa ko'pincha shaxsiy qiziqishlarni emas, jamiyatdagi maqomni tanlashga olib keladi.

Yoshlar ba'zida o'zining tabiiy iste'dodini rivojlantirish o'rniga jamiyatda yuqori baholanadigan kasbni tanlashga intiladi. Masalan, ajoyib chizish qobiliyatiga ega bo'lgan bola rassomlik yo'lini tanlash o'rniga, ota-onaning tavsiyasi bilan tibbiyotga kirishga harakat qiladi. Bu esa quyidagi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin:

Har qanday kasb, agar u insonning qiziqishi va salohiyatiga mos bo'lsa, muvaffaqiyatli faoliyat uchun poydevor bo'lishi mumkin. Tikuvchi ham, qandolatchi ham, pedagog ham o'z sohasida yetuk mutaxassis bo'lib, jamiyatga foyda keltirishi, yuqori daromad topishi va ijtimoiy e'tirofga sazovor bo'lishi mumkin.

Dunyo miqyosidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki: Ayollar texnologiya sohasida

erkaklar bilan teng darajada muvaffaqiyat qozonmoqda, agar ularga teng imkoniyat berilsa.

Erkaklar esa pedagogika, psixologiya, xizmat ko'rsatish kabi “ayollarga xos” sohalarida yuqori darajadagi empatiya va muvaffaqiyat ko'rsatmoqda.

Shu sababli, kasblarni jins asosida ajratish nafaqat adolatsizlik, balki ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatning boy berilishiga ham olib keladi.

Qanday yondashuv to'g'ri?

Qobiliyat va qiziqish – asosiy mezon bo'lishi kerak. Inson kasb tanlashda o'zining ichki qiziqishi, individual salohiyati va shaxsiy fazilatlariga tayanishi zarur.

Maktab va kollej darajasida kasb tanlash haqida ma'lumot berishda “ayollar uchun” yoki “erkaklar uchun” degan atamalardan

butunlay voz kechish kerak.

Muhandis ayollar, tarbiyachi erkaklar, IT sohasidagi qizlar kabi real hayotiy misollar orqali stereotiplarni buzish mumkin.

Kasb tanlash – bu inson hayotidagi eng muhim qarorlardan biri. Bu qaror jins bilan emas, qobiliyat, qiziqish va insoniy orzular bilan belgilanmogi lozim. Gender stereotiplarni yengib o'ta olgan yoshlar jamiyatda nafaqat o'z o'rini topadi, balki kelajak avlodlar uchun yo'l ochadi.

Zuxra RADJABOVA,
Pedagogika fakulteti,
Psixologiya kafedrasini
o'qituvchisi

Ushbu qo'shsahifa Chirchiq davlat pedagogika universitetining
Axborot xizmati
tomonidan tayyorlandi.